

ZULFIYA - AYOL QALBI KUYCHISI

Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi
ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi
Xorazm, O'zbekiston

"Farzandim, she'rginam, bor tezroq
Makon qur eng toza yurakda..."

O'zbek she'riyatining otashnafas shoiralaridan biri, inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi Zulfiyani bilmaydigan, uning biror she'rini yod olmagan kitobxon topilmasa kerak. Sevimli shoiramiz o'z she'rlari bilan bizlarni nafosatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb harorati bilan isitib kelmoqda. Zulfiya nafaqat betakror ijodi, balki qizg'in ijtimoiy faoliyati bilan ham ma'naviy hayotimizga ulkan hissa qo'shgan iste'dod sohibalaridan biri edi.

Hayot ana shunday iste'dod egasiga o'zi kabi buyuk va nodir talant egasi bo'lган Hamid Olimjonday insonni tuhfa etgan edi. Ammo taqdirning beshafqat o'yinlari oldida buyuk shoiramiz mahzun bosh egadi. 1944-yil 3-iyulda H.Olimjon vafotidan so'ng Zulfiyaning boshiga og'ir musibat tushdi. Ayrilik alamlari, hijron azoblari tufayli tug'yon urgan shoiraning qalbiga yana she'r hamdard bo'ldi. Vafodor yor va sadoqatli do'stning murakkab insoniy tuyg'ulari "Hijron kunlarida", "Baxtiyor sevgini kuylardi sozim", "Ne baloga etding mubtalo", "Sen qaydasan yuragim" kabi she'rlarida hazin ohangda yangragan edi. Zulfiyaning ovozi, uning ona qalbi, ayol nazokati, mo'tabar inson orzusini kuylagan otashin she'rlari faqat O'zbekistondagina emas, butun Osiyo va Afrika mamlakatlarda ham kitobxonlar diqqatini jalg qildi. Zulfiyaning yangroq poetik ovozi jahon kezib yuribdi. Zulfiya jamoat arbobi, xorijiy mamlakat taraqqiyat parvar yozuvchilari va davlat arboblarining mehmoni sifatida juda ko'p mamlakatlarda bo'lган, ijodiy kechalar o'z she'rlari bilan kitobxonlar qalbini zabit etgan. Zulfiya she'riyati teran fikr va qaynoq hissiyot uyg'unligidan hosil bo'lган, o'zbek adabiyotida o'ziga xos yo'nalishga ega bo'lган she'riyatdir.

"Agar shoirni idrok etmoqchi bo'lsang, uning vataniga bor", degan edi buyuk Gyote. Odatda, Vatan tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Zulfiya tug'ilgan Vatan – bu O'zbekiston, Toshkent shahridir. Shoira o'z tarjimayı holida bu haqda shunday yozgan edi: "Men Toshkentda tug'ilganman... Otam zahmatkash temirchi edi. Uning qo'llari cho'qqa aylangan temir parchasini istagan shaklga solib,





inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo nailoj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan..."

Darhaqiqat, Zulfiyaxonim inson qalbiga yo'l topishdek mashaqqatli vazifani ado eta olgan, millionlab kitobxonlarni qiziqtirgan fikrni, haqiqatni ayol qalbi qonidan yasalgan siyohda ifodalay olgan ijodkor shoira edi. Uning she'riyatida hayot zavqi ham, yaratish shavqi ham, g'oliblik g'ururi ham, kelajak sururi ham, insonlar baxti, oshiqlar ahdi ham, xalqning yovdan, yomonlikdan g'azabi ham, ayolning ulug' toqati, chin sadoqati ham, kemtiklik armoni, do'stlikning darmoni ham, xullas, xilmashil hayotiy insoniy tuyg'ular, fikrlar, g'oyalar ifodalanadi. Zulfiyaxonim olamni, hayotni obrazlar, timsollar vositasida kitobxon diliqa quyguvchi, qalb torlarini jaranglata olish qudratiga ega qalamkash edi. Shoira bir she'rda shunday yozadi:

Ne yozsam tub-tubdan hayotga doir,
Insoniy qalbimning tebranishi ul.

Shoira qalb torlaridan chiqqan ohanglar tashqi dunyo hayot zarblarining aks-sadosidir. Ammo bu ohanglarning eng markaziysi va baland jaranglagani bu – baxtiyorlik, shodlik va hayajon, g'am-fojeaviylikdir. Shoira o'z she'rlari to'g'risida o'ylarkan:

Ma'yusi ham, yorqini ham bor,
Tuproq, hayot, yurak bu axir!
deydi.

Shu o'rinda yana bir haqiqatni aytib o'tish kerakki, Zulfiya she'riyat uchun ilhom beruvchi hamma narsa to'g'risida qalam tebratdi. Ammo bularni ayol qalbi bilan tinglab, ayol ko'zi bilan ko'rib, idrok etib, ayol so'zi – bo'yog'i bilan tasvirladi. Uning tashbihlari ayollar bisotidan to'qilgan, ularning tuyg'u, kechinmasi, psixologiyasi, orzu-istagini ifodalashga xizmat etuvchi obrazlardir.

Shoira she'rlarining samimiyligi, iffatliligi va hatto ixchamliligidagi ayol fazilati shundaygina ayon bo'lib turadi. Ular nima haqida fikr yuritmasinlar unga o'zining, ya'ni ayollar qalbidagi yo'lak bilan kirib boradilar. Ayollar qalamidan tushgan har bir so'z, obraz, bo'yoqda ular qalbining muhri shunday yarqirab ko'rinish turadi.

Shoira yuzlab she'rlarida ayol, onaning buyukligini ta'riflaydi. Xalqimiz izzatiga sazavor bo'lgan ajoyib shoiraning xotirasi abadiydir. Zulfiyaxonim kabi yuksak ezgu xislatga ega bo'lishga intilib, yonib yashayotgan xotin-qizlarimiz hozirda juda ko'p. Ta'kidlash kerak, shunchalar obro-e'tibor, hurmat topa olgan, el-u yurtga ibrat bo'lib yashaydigan ayollar, xususan, shoiralarmiz, orifa-yu olimalarimiz uchun yurtimizda barcha sharoit-u imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, istiqlol sharofati bilan





mamlakatimizda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Bugungi kungacha ushbu yuksak unvonga sazavor bo'layotgan go'zal, lobar va iste'dodli qizlarimiz safi ortib boryapti. Zero, "O'zbekiston xalq shoirasi" Zulfiya ham bir umr dadil, o'z fikriga ega, iqtidorli qizlar ko'p bo'lishini orzu qilib, shu yo'lida fidoiylik namunasini ko'rsatgan edi. Zero, she'riyat in qurgan qalbga ezgulik kurtak otadi, go'zallik unadi, mehr terib olinadi!

